

SCIENCE AND EDUCATION NEWS

International scientific, methodical and popular journal

2026
issue 1(1)

https://t.me/saen_2024

saen_2024@mail.ru

www.saen.uz

Google Scholar
ResearchGate
Crossref
WORLD of JOURNALS

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2026-yil, 4-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2026

Muassis - “FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI” MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog‘iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

“Fan va ta’lim yangiliklari” ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik

Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G‘afurov Aktam G‘afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san’atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o‘g‘li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo‘chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne’matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Shoumarov G‘.B., Atadjanov M.Y. O‘zbekiston psixologiya fanida fundamental tadqiqotlarning hozirgi ahvoli…… 8
Нарзикулова Ф.Б. Имиджевый потенциал педагога в эпоху искусственного интеллекта: теоретико-методологический анализ…… 15
Sattarova G.I., Isroilova G.O‘. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda hissiy-irodaviy sohaning shakllanishi va rivojlanish omillari…… 24
Sagindikova N., Tolibayeva F. Talabalarning hissiy-intellektual resurslarini rivojlantirishda tanqidning o‘rni..... 32
Qodirova A.B. Allomalar ta’limotining ijtimoiy-psixologik tahlili…… 38
Narbasheva M.A. Talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish masalalari 45
Сманова А.А. Болашақ педагогтарды даярлаудағы коллаборациялық ортаның рөлі мен маңызы…….. 52
Сарыбекова Қ.Н. Сатылай кешенді талдау технологиясын пайдалана отырып бастауыш сынып оқушыларының функционалдық сауаттылықтарын қалыптастыру…… 62
Usmonova M.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy xarakter xususiyatlarini xalq pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi..... 68
Turg‘unboyeva A.G‘. Milliy qadriyatlarning etnopsixologik asoslari va oilaviy munosabatlarda namoyon bo‘lish mexanizmlari 75
Bekmanova J.A. Возможность использования некоторых перспективных направлений зарубежного опыта подготовки логопедов в системе дошкольного образования Узбекистана…… 82
Kamilova M.X. Oilada huquqiy savodxonlik shakllanishida motivatsion omillarning o‘rni…… 87
Muqumova D. Multimodal kommunikatsiya: til va vizual elementlarning ijtimoiy tarmoqlardagi integratsiyasi..... 93
Odiljonova A.A. Talabalarda kreativlik xususiyatlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari……. 105
Berdiyev N.O. Talabalarning mustaqil ishlari mazmunini modernizatsiyalashning ilmiy-nazariy asoslari…….. 113
Акалаева А.А. Уксусная кислота как средство парасуицида: психология выбора…. 120
Айтжанов К.К. Психологическая компетентность врача: теоретические основы и типология личностных особенностей…… 136
Jo‘rayev A.Q. Shaxslararo munosabatlarda qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari……... 141
Ибраимова Л.Н., Құрмантаева С.Ж. Абай мұрасын бала тәрбиесінде тиімді қолдану мәселелері……. 148
Ziyodulloyev N.M. Maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish: kasbning kelajagini belgilaydigan tendensiyalar……... 154
Xoshimov N.E. Globallashuv sharoitida internetga tobelikning sabab, oqibatlari va profilaktikasi…….. 160
Mengliqulova M.A. Yangi milliy ta’lim dasturini joriy etishda metodik va didaktik ta’minotni takomillashtirish masalalari……. 168
Boydavlatov A.A. Neyroplastiklik va uning bo‘lajak mutaxassislar o‘zlashtirish darajasini rivojlantirishga ta’siri……. 175
Bolliyev T.R. Tarix fani darslarida yuqori sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari…… 182
Ergasheva G.E. Kasbiy rivojlantirish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlar…. 190
Yetmisheva D.G‘. Texnologiya fanida raqamli texnologiyalarning o‘rni…… 197
Спаналиева Г.Т., Шанжарова А.А. Балаларға кітап оқыту арқылы оқу мәдениетін қалыптастыру……... 206

Xayrullayeva M.X. Raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar……... 214
Rafaelova S.R. Nukus shahri va Shumanay tumani o‘smirlarining terminal va instrumental qadriyatlarini qiyosiy tahlil qilish……. 224
Sayfullayeva M., Abdusalomova Ch. Umumta’lim maktablarida o‘smirlar ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari…… 230
Kurbanov J.Y. O‘quvchilar media tafakkurini rivojlantirishning pedagogik muammolari 236
Ahmedova R.Sh. Ijtimoiy munosabatlarga kirishayotgan o‘smirlarning irodaviy sifatlarini diagnostika qilish..... 242
Nosirjonov M.S. Said Ahmadning “Alla” hikoyasining semantik tahlili……. 248
Karimova B.S. Xitoy tilshunoslarining “aforizm” atamasiga bergan ta’riflari…… 254

UDK: 316.356.2:159.9



Turg‘unboyeva Azizaxon G‘ulomovna,
Namangan davlat pedagogika instituti
“Kreativ pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, (PhD)

MILLIY QADRIYATLARNING ETNOPSIXOLOGIK ASOSLARI VA OILAVIY MUNOSABATLARDA NAMOYON BO‘LISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaning etnopsixologik tadqiqotlardagi o‘rni hamda milliy qadriyatlarning shakllanishidagi ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilingan. Tadqiqotda oila jamiyatning birlamchi ijtimoiy instituti sifatida talqin qilinib, unda milliy xarakter, etnik ong, urf-odat va an’analarning avloddan-avlodga uzatilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar transformatsiyasi, oilaviy munosabatlarning etnopsixologik xususiyatlari hamda yosh avlod ma’naviy tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada etnopsixologiyaning nazariy-metodologik jihatlari, oilaning kichik ijtimoiy guruh sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari va milliy mentalitetni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: etnopsixologiya, milliy qadriyatlar, oila, etnik ong, milliy mentalitet, oilaviy munosabatlar, milliy xarakter, qadriyatlar transformatsiyasi, ijtimoiy-psixologik omillar, etnik identifikatsiya, shaxslararo munosabatlar, milliy o‘zlikni anglash.

ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И МЕХАНИЗМЫ ИХ ПРОЯВЛЕНИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье проанализированы роль семьи в этнопсихологических исследованиях, а также социально-психологические факторы формирования национальных ценностей. Семья рассматривается как первичный социальный институт общества, в рамках которого раскрываются механизмы передачи из поколения в поколение национального характера, этнического сознания, традиций и обычаев. Также с научной точки зрения обоснованы трансформация национальных ценностей в условиях глобализации, этнопсихологические особенности семейных отношений и факторы, влияющие на духовно-нравственное воспитание молодого

поколения. В статье раскрываются теоретико-методологические аспекты этнопсихологии, особенности семьи как малой социальной группы, а также её значение в формировании национального менталитета.

Ключевые слова: этнопсихология, национальные ценности, семья, этническое сознание, национальный менталитет, семейные отношения, национальный характер, трансформация ценностей, социально-психологические факторы, этническая идентификация, межличностные отношения, национальное самосознание.

ETHNOPSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF NATIONAL VALUES AND MECHANISMS OF THEIR MANIFESTATION IN FAMILY RELATIONS

Abstract. This article analyzes the role of the family in ethnopsychological research as well as the socio-psychological factors influencing the formation of national values. The family is interpreted as a primary social institution of society, within which the mechanisms of transmitting national character, ethnic consciousness, customs, and traditions from generation to generation are revealed. Furthermore, the transformation of national values under globalization, the ethnopsychological characteristics of family relations, and the factors influencing the spiritual and moral upbringing of the younger generation are scientifically substantiated. The article also highlights the theoretical and methodological aspects of ethnopsychology, the specific characteristics of the family as a small social group, and its importance in shaping the national mentality.

Keywords: ethnopsychology, national values, family, ethnic consciousness, national mentality, family relations, national character, transformation of values, socio-psychological factors, ethnic identification, interpersonal relations, national self-awareness.

Farg‘ona vodiysi oilalari misolida etnopsixologik xususiyatlarni o‘rganish bugungi globallashuv, madaniy transformatsiya va axborot xurujlari kuchayib borayotgan sharoitda alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki har bir millatning milliy madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari, milliy ongi va etnik xususiyatlari shaxslararo munosabatlar tizimida shakllanib, avloddan-avlodga uzatiladi. Milliy xarakter, milliy g‘oya, etnik ong va milliy o‘zlikni anglash kabi etnopsixologik fenomenlar jamiyat barqarorligi, millatlararo totuvlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi tezkor, tahlikali va ziddiyatli zamonda milliy birlik tuyg‘usini mustahkamlash, insonparvarlik va bag‘rikenglik qadriyatlarini asrab qolishda etnopsixologik yondashuvlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, milliy va

baynalminal qadriyatlarni asrash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur yo‘nalishlar bevosita etnopsixologik munosabatlar, etnik o‘zlikni anglash, etnohududiy xususiyatlar va milliy mentalitetni ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, etnopsixologik tadqiqotlar nafaqat muayyan xalq yoki millat psixologiyasini, balki turli etnik guruhlar va ijtimoiy qatlamlarning o‘ziga xos ruhiy qiyofasi, xulq-atvori hamda qadriyatlar tizimini o‘rganishda muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Etnopsixologiya ijtimoiy psixologiyaning tadbiqiy yo‘nalishlaridan biri sifatida milliy xarakter, urf-odat va an’analar, etnik ong, milliy o‘zini o‘zi anglash, etnik identifikatsiya hamda mentalitetning shakllanish va rivojlanish mexanizmlarini o‘rganadi. Mazkur fan dastlab etnografiya va antropologiya tarkibida vujudga kelgan bo‘lsa-da, keyinchalik ijtimoiy psixologiya bilan integratsiyalashgan holda mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlandi. Bugungi kunda ayrim xorijiy tadqiqotchilar uni “psixologik antropologiya” yoki “qiyosiy-madaniy psixologiya” doirasida talqin qilayotgan bo‘lsalar-da, uning asosiy tadqiqot obekti turli millaat va etnik birlik vakillarining tipik psixologik xususiyatlari, milliy mentalitrti va ijtimoiy- psixologik munosabatlarini tadqiq etishdan iboratdir. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, Farg‘ona vodiysi oilalarida qadriyatlarning o‘ziga xosligi va zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlarning oilaviy munosabatlarga ta’sirini o‘rganish ham ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Chunki vodiy oilalarida an’anaviy kollektiv qadriyatlar, qarindoshlik munosabatlari, mahalla instituti va milliy tarbiya tizimi hanuzgacha kuchli ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bois, oilalarda etnopsixologik va etnohududiy xususiyatlarning namoyon bo‘lishini ilmiy asosda tahlil qilish, milliy qadriyatlar transformatsiyasining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda yosh avlodda milliy identifikatsiya va tolerantlikni shakllantirish masalalari zamonaviy etnopsixologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Etnopsixologik tadqiqotlarda jamiyat va millat psixologiyasini o‘rganishda asosiy mezon, avvalo, oilaviy muhit va undagi munosabatlar tizimidan izlanadi. Chunki oila har qanday jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, unda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, axloqiy meyorlar hamda etnopsixologik xususiyatlar avloddan-avlodga uzatiladi. Shaxsning milliy o‘zligini anglashi, milliy mentaliteti, qadriyatlarga munosabati va ijtimoiy xulq-atvori aynan oilaviy tarbiya, oiladagi ma’naviy-ruhiy muhit hamda qarindoshlik munosabatlari ta’sirida shakllanadi. Shu bois, oiladagi qadriyatlar tizimi nafaqat individual psixologik rivojlanishga, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, milliy birlik va madaniy davomiylikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Keyingi yillarda milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish masalasi xorijiy hamda mahalliy psixolog olimlar tadqiqotlarida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, globallashuv, ommaviy madaniyat, migratsiya jarayonlari va axborot oqimlarining kuchayishi natijasida milliy qadriyatlar transformatsiyasi, yoshlar ongida qadriyatlar tizimining o‘zgarishi, oilaviy munosabatlarda an’anaviy va zamonaviy qarashlarning uyg‘unlashuvi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda etnik identifikatsiya,

tolerantlik, kollektivizm-individualizm, oilaviy qadriyatlar va madaniy moslashuv muammolari keng o‘rganilgan bo‘lsa, mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘zbek oilalariga xos etnopsixologik va etnohududiy xususiyatlar, milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati, oilada ma’naviy muhitning shakllanishi hamda qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-psixologik omillari chuqur tadqiq etilmoqda.

Shuningdek, zamonaviy etnopsixologik izlanishlarda milliy qadriyatlarning yosh avlod dunyoqarashi, milliy o‘zlikni anglash, bag‘rikenglik, oilaviy birdamlik va ijtimoiy moslashuv jarayonlariga ta’siri alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Zero, qadriyatlar tizimi jamiyatning ma’naviy poydevori sifatida insonlarning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy munosabatlari va milliy ongini shakllantiruvchi muhim etnopsixologik mexanizm hisoblanadi.

Mazkur muammoning turli sohalarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar respublikamizning yetakchi psixologlari G‘ayrat Shoumarov, Feruza Akramova, Sharif Baratov, Bahriddin Umarov , Umarali Qodirov , Zamira Nishonova, M. Fayziyeva, Marat Utepbergenov, Navbahor Salaeva, D.Baratova, Hasanboy Abdusamatov, Ziyoda Rasulova va boshqalar tomonidan olib borilgan xamda bu borada o‘ziga xos tajriba to‘plangan.

Bugungi kundagi o‘rganishlar natijasi va kuzatuvlarga ko‘ra etnopsixologik sohadagi tadqiqotlar ko‘plab yo‘nalishlarda olib borilayotganini aniqlandi. Inson ruxiyati bilan bog‘liq soxalarning deyarli barcha jihatlari doimiy ilmiy nazorat ostidadir. Soxa olimlarining tadqiqotlarida aytilishicha samarali izlanish olib borish uchun ijtimoiy-psixologik muammolarni boshqa fanlar bilan birga kompleks o‘rganmoq zarur. Kompleks metod orqali tadqiqotning nafaqat ilmiyligi oshadi, balki u o‘rganilayotgan ob’ektning turli nuqtai nazardan tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Bunda bir necha fanlar (ijtimoiy-gumanitar va tabiiy) hamkorligiga suyanib ish qilish mumkin. Bu borada shuni aytish kerakki, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi tengsizlik, turli tabiiy-geografik sharoitlar xalqlar o‘rtasida ma’lum psixologik tafovutlarni vujudga keltirgan.

Tadqiqotlarda eng muhim metodologik tamoyil shundan iboratki, oilani o‘rganayotgan tadqiqotchi uni oddiy oila a’zolari yig‘indisi sifatida emas, balki barcha oila a’zolari o‘rtasida murakkab va serqirra munosabatlar tizimi mavjudligini, ushbu munosabatlar har bir a’zoning berajak javoblarida aks etishini unutmasligi kerak. Ya’ni, oila va undagi munosabatlar doimo tashqi psixologik ta’sirlar ta’siri ostida bo‘ladi. Oilaga kichik ijtimoiy guruh sifatida yondashish esa, kichik guruhlarga xos bo‘lgan deyarli barcha ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarning mavjudligi hamda ular har bir oila a’zosining maqomini belgilashini inobatga olishni taqozo etadi. Aslida, jamiyat miqyosida olib qaralganda ham, oila ayrim olimlarn A. Luriya , G.M. Andreyeva, A.I. Zaxarov, V. Vundt , N.Ya. Solovyova va boshqalar tomonidan haqli ravishda birlamchi guruh sifatida e’tirof etiladi. Ya’ni, birlamchi guruhlarga xos bo‘lgan emotsionallik, munosabatlarda rasmiylik va norasmiylikning uyg‘unlashuvi, ijtimoiy-psixologik muhitning insoniy munosabatlarga bog‘liqligi kabi jihatlar oilaviy munosabatlar uchun ham xosdir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, A.R.Luriya tadqiqotlarining asosiy maqsadi milliy psixologik xususiyatlarni o‘rganishda tarixiylilik tamoyiliga tayanish

lozimligini isbotlash hamda milliy psixologiyaning hayot tarziga, shaxsning jamiyatda shaxslararo munosabatlari tizimida tutgan o‘rniga bevosita bog‘liqligini isbot qilish edi. Birinchi dastlabki tadqiqotlar qator metodologik kamchiliklardan xoli bo‘lmasada, uning muayyan ilmiy va amaliy ahamiyati ham bor ediki, unda birinchi marta milliy psixologiyani o‘rganishga yordam beruvchi metodlar va metodologik tamoyillar sinovdan o‘tkazildi. Bu tadqiqot ma’lumotlari va unda aks etgan ilmiy xulosalar bilan bugungi kungi xolatni to‘lig‘icha ifodalamasada, lekin milliy psixologiya bo‘yicha o‘tkazilgan qiyosiy tadqiqot sifatida uning baribir etnopsixologiya uchun ahamiyati kattadir. A.Luriya ushbu tadqiqotida qo‘llangan piktogramma usuli, ya’ni,“so‘z portretlari”ni tahlilidan foydalangan, o‘z-o‘zini analiz qilish metodlarini hozirgi zamonaviy tadqiqotlarda ham faqat yangicha metodologik printsiplar asosida qo‘llash mumkin.

Shu bois, oila yo‘nalishida olib boriladigan tadqiqotlarda uning ijtimoiy guruh sifatida faqat o‘ziga xos bo‘lgan sifat va xususiyatlarini unutmaslik lozim. Ushbu omillar quyidagilardan iborat:

- oilada bir emas, bir nechta umumiy maqsadlarning mavjud bo‘lishi. Ya’ni, agar mehnat jamoasida a’zolarni birlashtiruvchi yagona maqsad mavjud bo‘lsa, oilada bunday maqsadlar bir nechta bo‘lishi hamda oilaviy hayot davomida o‘zgarib borishi mumkin. Masalan, dastlab yaxshi niyat bilan birgalikda yashash maqsadi ustuvor bo‘lsa, keyinchalik sog‘lom farzand ko‘rish, sunnat to‘yi qilish, farzandni maktab ta’limiga tayyorlash, uni uylantirish yoki turmushga uzatish kabi yangi maqsad va orzu-havaslar yuzaga keladi. Oilaviy hayotning mazmuni va jozibasi ham aynan shu maqsadlar hamda ularni amalga oshirishdagi er-xotin inoqligi va hamfikrligi bilan belgilanadi;

- oila a’zolarining manfaatlari, qiziqishlari va intilishlarida muayyan tafovut hamda kelishmovchiliklarning tabiiy holat ekanligi. Ayniqsa, bu holat katta avlod vakillari qarashlari bilan yoshlar dunyoqarashi o‘rtasidagi ziddiyatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Avlodlararo tafovutlar ko‘p hollarda konstruktiv xarakter kasb etib, oilaviy rivojlanishga ham xizmat qilishi mumkin;

- alohida yashovchi oilalarda er-xotin munosabatlarining boshqa oilaviy munosabatlarga, xususan, farzandlarning tarbiyalanganlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi;

- oilaviy murosa va hamjihatlikka boshqa qarindoshlar, ayniqsa, keksa avlod vakillarining ta’siri mavjudligi;

- oila a’zolari o‘rtasidagi hamkorlik faoliyati va uning samarasi har doim ham yaqqol namoyon bo‘lavermasligi. Masalan, oilada erkakning o‘z vazifa va mashg‘ulotlari, ayolning esa o‘ziga xos o‘rni hamda majburiyatlari mavjud bo‘lib, ular har doim ham birgalikda faoliyat olib boravermaydi. Oilaviy hasharlar yoki umumiy tadbirlar bunday holatlardan istisno hisoblanadi;

- muomala madaniyati hamda o‘zaro hurmat meyorlarining katta ahamiyatga ega ekanligi, doimo bir-birining ko‘ngliga qarash oilaning mustahkamligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanishi;

- oilada o‘zaro sir saqlash, yashirin yoki xufyona harakatlarning oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi.

Yuqorida ta’kidlangan holatlar oila tadqiqotlarini olib boruvchi mutaxassislardan sof ijtimoiy guruhlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodologik tamoyillardan qisman chekinishni talab qiladi. Chunki oila — o‘zida murakkab insoniy munosabatlar mujassam bo‘lgan noyob ijtimoiy maskandir.

Xulosa qilib aytganda, etnopsixologik tadqiqotlarda oilani asosiy ijtimoiy-psixologik muhit sifatida o‘rganish milliy qadriyatlar, etnik ong, milliy xarakter va shaxslararo munosabatlarning shakllanish mexanizmlarini chuqur anglash imkonini beradi. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida milliy an’ana va qadriyatlarni saqlovchi, avlodlararo vorislikni ta’minlovchi hamda shaxsning milliy o‘zligini shakllantiruvchi asosiy maskan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, oila muhiti nafaqat shaxsning psixologik rivojlanishiga, balki uning dunyoqarashi, ijtimoiy xulq-atvori va qadriyatlar tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bola shaxs sifatida aynan oilada shakllanadi, uning ilk ijtimoiy tajribasi, axloqiy me’yorlari va kommunikativ ko‘nikmalari ham oilaviy muhitda rivojlanadi. Shu sababli oiladagi ijobiy yoki salbiy psixologik muhit keyingi hayot bosqichlarida shaxsning ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir qiladi.

Zero, bugungi globallashuv va madaniy transformatsiyalar sharoitida milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning ortishi milliy mentalitetning ayrim jihatlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda oilaning tarbiyaviy funksiyasi yanada muhimlashadi, chunki aynan oila orqali milliy qadriyatlar avloddan-avlodga uzatiladi va mustahkamlanadi.

Ayniqsa, o‘zbek oilalarida saqlanib kelayotgan mehr-oqibat, hurmat, bag‘rikenglik, hamjihatlik va ahillik kabi qadriyatlar jamiyat barqarorligi hamda yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qadriyatlar nafaqat oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, balki ijtimoiy totuvlik va milliy birlikni ham ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, oilalarda etnopsixologik va etnohududiy xususiyatlarning namoyon bo‘lishini o‘rganish, qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash hamda milliy mentalitetni asrab-avaylashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham jamiyat rivojiga, yosh avlod tarbiyasini takomillashtirishga va milliy o‘zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoumarov G‘.B., Rasulova Z.A. Yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar //Oila barqarorligi: muammolar, tajribalar, istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami– Toshkent,2012. –B.116- 118.

2. Turg‘unboyeva Azizaxon G‘ulomovna .O‘zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg‘ona vodiysi misolida).Maktabgacha va maktab ta’limi. Toshkent 2026 . – B. 247.

https://zenodo.org/records/17113665/files/55.Turg%E2%80%98unboeva%20Azizaxon%20G%E2%80%98ulomovna.pdf?download=1

3. Turg‘unboyeva Azizaxon G‘ulomovna Психологические тренинги как средства здоровьесберегающих технологии Состояние здоровья: медицинские, социальные и психолого-педагогические …, 2017 Link View Article

4. Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun / G‘.B. Shoumarov tahr. ost. – Toshkent, 2009. – 338 b.

5.Oila entsiklopediyasi. Tuzuvchilar: F.A.Akramova, Z.Bilolova, I.Jovliev. – T: «Ozbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. – 240 b.